

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Shaxmat Federatsiyasi

Bosh kotibi

B.Sattarov

2025 yil



SHAXMAT BO‘YICHA XALQARO HOTIN-QIZLAR KUNIGA BAG‘ISHLANGAN
“WOMEN’S CHESS CHAMPIONSHIP” III-XALQARO TURNIRI

NIZOMI

2025 yil 8-19 MART, SAMARQAND

1. Musobaqa maqsadi va vazifalari

1.1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-150-son qaror ijrosini ta‘minlash;

1.2. O‘zbekistonda ayol(qiz)lar shaxmatini rivojlantirish;

1.3. O‘zbekiston milliy terma jamoalari a‘zolarining sport mahoratini oshirish;

1.4. Xorijlik mahoratli shaxmatchilar bilan o‘zaro tajriba almashish.

2. Musobaqani o‘tkazish vaqti va joyi

2.1. Musobaqa 2025-yil 8-19-mart kunlari Samarqand shahrida o‘tkaziladi.

3. Musobaqani o‘tkazish tartibi

3.1. Musobaqa FIDE qoidalari asosida ayol(qiz)lar o‘rtasida ikki guruhda tashkil etiladi:

A guruhida - 1800 va undan yuqori reytingli ishtirokchilar;

B guruhida - reytingi 2000 va undan past bo‘lgan qatnashchilar ishtirok etadi.

FIDE reytingi (standart) 2025-yil 1-mart hisobga olinadi.

3.2. Musobaqa shveytsar tizim standart yo‘nalishida 9 turda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchiga 90 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 30 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi. 30 yurishgacha durangga kelishish mumkin emas.

3.3. Turga maksimal kechikich vaqti 15 daqiqa. Ketma-ket 2 ta turga kelmagan ishtirokchilar musobaqadan chetlatiladi.

3.4. Taklif etilgan xorijlik shaxmatchilarning reytinglari 2025 yilning 1-fevral holatiga ko‘ra hisobga olinadi.

3.5. Musobaqada ishtirok etishni istagan horijlik shaxmatchilar 2025 yilning 25-fevral oyiga qadar, O'zbekiston Shaxmat Federatsiyasining rasmiy elektron pochta uzchess@inbox.ru orqali ariza yuborishlari mumkin.

4. Musobaqa dasturi

Sana	Tadbir	Vaqt
08.03.2025	Kelish kuni	
09.03.2025	Ochilish marosimi	14 ⁰⁰
	1-tur	14 ³⁰
10.03.2025	2-tur	14 ⁰⁰
11.03.2025	3-tur	14 ⁰⁰
12.03.2025	4-tur	14 ⁰⁰
13.03.2025	5-tur	14 ⁰⁰
14.03.2025	6-tur	14 ⁰⁰
15.03.2025	Dam olish kuni	
16.03.2025	7-tur	14 ⁰⁰
17.03.2025	8-tur	14 ⁰⁰
18.03.2025	9-tur	11 ⁰⁰
	Tay-breyk	16 ⁰⁰
	Yopilish marosimi	18 ⁰⁰
19.03.2025	Ishtirokchilarni kuzatish	

5. Musobaqa o'tkazish, g'olib va sovrindorlarni aniqlash qoidalari

5.1. G'oliblar to'plangan ochkolar soni bo'yicha aniqlanadi. Agar ochkolar soni teng bo'lsa, u holda 1-o'rin uchun tay-breyk tashkil etiladi. Tay-breyk faqat birinchi va ikkinchi o'rinlar o'rtasida o'tkaziladi. Tay-breyk tartibi: 2 partiya blits match. Vaqt nazorati: 3+2.

5.2. Agar tay-breykda ishtirokchilar ochkolari teng bo'lib qolsa u holda g'olib aniqlanmagunicha 2 o'yindan iborat mini-match davom ettiriladi.

5.3. Qolgan o'rinlarni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar inobatga olinadi:

- 1) qisqartirilgan Buxgolts koeffitsienti -1;
- 2) buxgolts koeffitsienti;
- 3) shaxsiy uchrashuv;
- 4) g'alabalar soni;
- 5) reyting perfomans va boshqalar.

5.4. Agar ishtirokchilarning ochkolari teng bo'lib qolsa, ularning sovrinlari o'zaro taqsimlanmaydi.

5.5. Bir o'yinchi ikkita nominatsiyada g'olib chiqsa, sovrinlar umumlashtirilmaydi, kattaroq sovrin yoki bosh sovrin beriladi.

5.6. Pul mukofotlari sovrindorlarga taqdirlash marosimida barcha hujjatlarni taqdim etgandan keyin ularning hisob raqamlariga, bank kartalariga yoki naqd ko'rinishida berilishi mumkin.

5.7. Taqdirlash marosimida ishtirok etmagan ishtirokchilarga sovrinlar berilmaydi. Sovrinlardan bank harajatlari, soliq va majburiy to'lovlar ushlab qolinishi mumkin.

5.7. Umumiy mukofot jamg'armasi 50 000 AQSh dollarini tashkil qiladi.

A guruh mukofot jamg'armasi:

Asosiy mukofot		Maxsus sovrinlar			
1	7000	20 yoshgacha bo'lgan qizlar		16 yoshgacha bo'lgan qizlar	
2	4000	1	1400	1	500
3	3500	2	900		
4	3000	3	700		
5	2500				
6	2000				
7	1900				
8	1800	12 yoshgacha bo'lgan qizlar			
9	1700	1	500		
10	1600				
11	1400				
12	1300				
13	1200	Faxriylar o'rtasida 50+		Faxriylar o'rtasida 65+	
14	1100	1	500	1	500
15	1000				
Jami:	35000			Jami:	5000

B guruh mukofot jamg'armasi:

Asosiy sovrin		Maxsus sovrinlar	
1	2500	16 yoshgacha bo'lgan qizlar	12 yoshgacha bo'lgan qizlar

2	1800	1	500	1	500
3	1100				
4	900	Faxriylar o'rtasida 50+		Faxriylar o'rtasida 65+	
5	700	1	250	1	250
6	600				
7	500	Eng yosh ishtirokchi			
8	300	1	100		
Jami:	8400			Jami:	1600

5.8. O'zbekistonlik sovrindorlarga sovrinlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha milliy valyutada beriladi.

6. Turnir ishtirokchilari va badali

6.1. Quyidagilar uchun ishtirok etish bepul:

Xalqaro unvonga ega shaxmatchilar GM, IM, WGM, WIM

6.2. O'zbekistonlik ishtirokchilar uchun to'lovlar A guruhi uchun (25-fevralgacha to'lanadi):

FIDE reytingi 2100 va undan yuqori bo'lgan shaxmatchilar uchun to'lov 400 000,
FIDE reytingi 1800-2099 bo'lgan shaxmatchilar uchun to'lov 450 000 so'm.

6.3. O'zbekistonlik ishtirokchilar uchun to'lovlar B guruhi uchun (25-fevralgacha to'lanadi):

FIDE reytingi 1700-1999 bo'lgan shaxmatchilar uchun to'lov 400 000 so'mni tashkil etadi;
FIDE reytingi 1700 dan past bo'lgan shaxmatchilar uchun to'lov 450 000 so'mni tashkil etadi;
FIDE reytingiga ega bo'lmagan shaxmatchilar uchun to'lov 500 000 so'mni tashkil qiladi.

6.4. Ishtirokchilar o'z badallarini O'zbekiston shaxmat federatsiyasining bank hisob raqamiga o'tkazadilar:

Account	2021 2000 1001 7827 6001	INN 201710234
Bank nomi	PJSCB "DAVR BANK"	MFO 00981

Xalqaro ishtirokchilar uchun to'lovlar A, B guruhlarini uchun (25-fevralgacha to'lanadi):

100 AQSH dollari (A guruh uchun)

50 AQSh dollari (B guruh uchun)

Xalqaro fuqarolar to'lovlarini quyidagi bank hisobiga to'laydilar:

O'zbekiston shaxmat federatsiyasi	Account: 2021 2840 2001 7827 6009
-----------------------------------	-----------------------------------

S.W.I.F.T.: DVRBUZ22	Manzil: 98A Karimov str., Tashkent, Uzbekistan
Bank nomi: P.J.S.C. "DAVR BANK"	Bank telefon raqami: (99871) 207-09-81

6.5. O'SHF barcha arizalarni ko'rib chiqadi va tanlab, majburiy dastlabki kelishuv asosida FIDE reytingi 2300 va undan yuqori bo'lgan 10 ta xorijlik ishtirokchilarni quyidagi shartlar asosida qabul qiladi: To'liq pansion va bir kishilik xonada joy va aviachiptalarni to'lash (ekonom-klass) 500 AQSh dollaridan ortiq bo'lmagan. Bepul turar joy 8- mart kundan (tushlik) 19- mart kuni tushgacha (nonushta) taqdim etiladi. Erta ro'yxatdan o'tish, kechikish va qo'shimcha kunlar taklif qilingan shaxslar tomonidan to'lanadi.

7. Apellyatsiya qo'mitasi

7.1. Turnir natijasi bo'yicha berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun kamida 5 kishidan iborat apellyatsiya qo'mitasi tashkil etiladi. Apellyatsiya qo'mitasi tarkibi tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanadi.

7.2. Turnir hakamlaridan va ularning qabul qilgan qarorlaridan norozi bo'lgan ishtirokchilar musobaqa jarayonida apellyatsiya qo'mitasiga murojaat qilishlari mumkin.

8. Vizalar

8.1. O'zbekistonga kirish uchun viza zarur bo'lgan ishtirokchilar 2025-yilning 10-fevralga qadar ro'yhatdan o'tishlari pasport nus'halarini yuborishlari kerak. Aks holda, tashkilotchilar viza yordamini kafolatlamaydi.

8.2. Agar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi viza berishga ruhsat bermasa, tashkilotchilar viza bo'yicha hech qanday yordam ko'rsata olmaydi.

9. Kiyinish tartibi va sog'likni saqlash choralari

9.1. FIDE kiyinish qoidalariga talablariga amal qiling. Aks, holda ishtirokchilar o'yinda ishtirok etishga ruxsat berilmaydi.

9.2. Tana harorati ko'tarilgan yoki boshqa kasallik belgilari bo'lsa, ishtirokchi turnirdan chetlashtirilishi mumkin.

10. Fair play qoidalar

10.1. Barcha ishtirokchilar FIDEning Fair play qoidalariga amal qilishlari va hamkorlik qilishlari talab etiladi. O'yinchilar istalgan vaqtda bosh hakamning Fair play qoidalariga asoslangan yakuniy qaroriga binoan turnirdan chetlatilishi mumkin.

10.2. Barcha o'yinchilar yuqorida aytib o'tilgan harakatlar ustidan arbitraj, maslahatlashuv yoki biron bir yurisdiksiya doirasida sudga shikoyat qilish huquqiga ega emas. Ishtirokchilar turnir davomida tuzilgan juftliklar uchun apellyatsiyaga berish huquqiga ega emaslar. Turnirda ro'yhatdan o'tish orqali o'yinchilar turnir bilan bog'lik hech qanday moliyaviy kompensatsiya yoki turnir bilan bog'liq tuzatish talab qilish huquqiga ega bo'lmaydi.

11. Musobaqani molivalashtirish

11.1. Sovrin jamg'armasi, tashkiliy harajatlar, taklif etilgan hakamlar va sportchilarning, rasmiy shaxslarning transfer, turar joy va musobaqa davrida ovqatlanish harajatlari tashkilotchilar tomonidan qoplanadi.

11.2. Qolgan ishtirokchilar va murabbiylarning harajatlari safarga yuboruvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

12. Yakuniy qoidalar

12.1. Musobaqalarning muvaffaqiyatli o'tishi uchun musobaqa nizomiga tashkiliy qo'mita tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

12.2. Turnirda ishtirok etadigan barcha shaxmatchilar Uzchess tomonidan tashkil etiladigan media tadbirlarida ishtirok etishi va intervyu berishlari talab etiladi. Agar ushtirokchi partiyalarini shahrlashdan va intervyu berishdan bosh tortsa, har bir intervyu bermaganligi uchun 100 AQSH dollari miqdorida jarimaga tortiladi.

12.3. Musobaqa ishtirok etayotgan barcha o'yinchilar nizom bilan tanishgan va uning barcha bandlarini qabul qilgan hisoblanadi.

13. Aloqa ma'lumotlari:

Telefon raqami: +99895 511-12-00
Veb sahifa: www.uzchess.uz
Telegram kanal: <https://t.me/uzchess>
E-mail: uzchess@inbox.ru